

**BOSHLANG’ICH TA’LIM O’QUV -TARBIYA JARAYONIDA
IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ
ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**PROBLEMS OF DEVELOPING CREATIVITY IN THE EDUCATIONAL
PROCESS OF PRIMARY EDUCATION**

Nusratova Ma’muraxonim Fayzidin qizi

*Orental unversteti “Ta’lim tarbiya nazariyasi” yo ‘nalishi
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Hozirgi mavjud ta’lim asosan, ilgaridan mavjud bo’lgan an’naviy didaktikaga asoslangan, ya’ni o’quv jarayonida ilgaridan fanga ma’lum bo`lgan bilimlarni o`qitish, o`rgatish, etkazish bilan xarakterlanadi. O`qituvchi ilgaridan ma’lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan talabaning ta’lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ushbu maqolada boshlang’ich ta’lim o’quv -tarbiya jarayonida ijodkorlikni rivojlanirish muammolari yoritilgan.

Аннотация: Современное образование в основном базируется на традиционной дидактике, которая существует уже давно, то есть характеризуется обучением, преподаванием и передачей ранее известных знаний в процессе обучения. Учитель заранее проводит определенные репродуктивные мероприятия. В основном это ограничивается запоминанием и повторением учащимся учебного материала. В статье рассматриваются проблемы развития креативности в процессе начального образования.

Abstract: The current education is mainly based on traditional didactics, that is, it is characterized by teaching, teaching, and transmitting previously known knowledge in the educational process. The teacher carries out certain reproductive activities. This is mainly limited to the student's memorization and repetition of the educational content. This article discusses the problems of developing creativity in the educational process of primary education.

Kalit so‘zlar: ijod, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, tasavvur, fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati.

Ключевые слова: креативность, воображение, критическое мышление и аналитические способности.

Keywords: creativity, imagination, critical thinking, and analytical skills.

Kirish

Maxsus ilmiy manbalarning tahlili, pedagogik hamda ijtimoiy madaniy voqelik, ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga qadar boshlang’ich ta’lim o‘quvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali intellektual shakllantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatdi. Pedagogika nazariyasi pedagogik moslashuvchanlikni ta’minalash yollariga ega emas. bolalarning ichki potensial quvvatlarini ruyobga chiqarish mexanizmlari ishlab chiqilmagan.

Shunga ko‘ra boshlang’ich ta’lim o‘quv - tarbiya jarayonida o‘quvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ijodiy sifatlarini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish nihoyatda zarur. Bunday texnologiyalarni ishlab chikish nafakat pedagogika fani, balki mакtabgacha ta’lim amaliyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur muammoning nazariy amaliy jihatdan ishlab chiqilmaganligi tadqiqot mavzusini tanlash ehtiyojini vujudga keltirdi.

Boshlang’ich ta’lim o‘quv -tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik sifatlarini shakllantirish masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ijodkorlik tushunchasini olimlarimizni nuqtai nazardan ko‘proq ijodga umumiyligini qobiliyatatlilik bilan aloqadorlikda talqin qilinadi. Hozirgi kunda ushbu atama aniq echimlarni izlab topish, nostonart harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma’nosini ifoda etadi. Psixologiyada esa kreativlik deganda “yangi g‘oya, echim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish” tushuniladi. [6, 199.b.]

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda, ijodkorlik kategoriyasi aslida, birinchi tomondan, ijodkorlik faoliyatning o‘ziga xos (uning maxsus turi ijodiy faoliyat - san’at, adabiyot, fan, yangi bosqichga o‘tish) xususiyatidir, ikkinchi tomondan esa, muammo ijodning psixologik jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘z nabitida qobiliyat muammosi bilan birlashadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ijod tushunchasi faoliyatni shakllantirish mexanizmi hisoblanadi, shuningdek, ijodning asosiy tarkibiy komponentlarni aniqlash uchun urinish ham amalga oshiriladi. Xususan, ijodiy komponentlar mavjud (kuzatish, diqqatni jamlash); aqli (sezgilar, xayol, bilimlarning kengayishi, moslashuvchanlik, mustaqillik, fikrlash tezligi va boshqalar); xarakteristika (kashfiyotlarning istaklari, faktlarga ega bo‘lish, hayron bo‘lish, tezda) Shunday qilib, ijodkorlik mohiyati murakkab va qarama-qarshi. Aksariyat hollarda ijodkorlar quyidagilarga qaratilgan: ijod - bu insonning umumiyligini xususiyatidir. Ijodkorlik - bu o‘zgaruvchan funksiyani amalga oshiradigan inson faoliyatning shakli. Ayniqsa, kichik maktab yoshdagi bolalardanining shaxsiyati to‘g‘risida L.S. Vigotskiy ijodkorlik rolini qo‘yidagicha ta’kidlaydi: “SHuni yodda tutingki, bolalar rivojlanishida ijodkorlik kobiliyatları normal va doimiy sun’iy yo‘ldosh bo‘lib xizmat qiladi”. [3, 13].

S.M Vishnyakov lug‘atida ijodiylik, ijodiy faoliyat sifat jihatidan yangi ma’lumot yaratadigan, ijtimoiy va tarixiy o‘zgacha bir ajralib turadigan faoliyat deb keltirilgan. Ba’zi olimlar nuqtai nazaridan ijodkorlik fan, texnika, ishlab chiqarish, san’at yoki umuman odamlar hayotining ma’lum bir sohasidagi yangi ma’lumotlarni yaratishdir.


Natijalar va muhokama

Ijodkorlik – faoliyat turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliv tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan bunyodkorlik intilishini bildiradi. (1.1-rasm).

Kichik maktab yoshdagи bolalardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiya, faoliyatdan tashqarida kamol topa olmaydi.

Ijod - faoliyat jarayoni, natijada sifat jihatidan yangi ob’ektlar va ma’naviy qadriyatlar yaratilishi yoki ob’ektiv ravishda yangilanish natijasidir. Ishlab chiqarish (ya’ni mahsulotni) ijodkorligini ajratib turadigan asosiy mezon - bu uning natijalarining o‘ziga xosligi. Ijodiyotda nafaqat natija, balki uning o‘zi ham qadrlidir.

Ijodiy faoliyat - inson yoki jamoaviy faoliyat shakli, ilgari mavjud bo‘lmagan ammo sifat tomonidan yangicha qarash tushuniladi.



1-rasm Ijodiy faoliyat mexanizmlari

Tasavvur - aqliy tarkibiy qismlarni qayta ishlash orqali yangi tasvirlarni ko‘rish qobiliyati so‘nggi tajribaga ega bo‘ladi. Qolaversa, tasavvur - oldingi tajriba va g‘oyalar ma’lumotlarni qayta ishlash orqali yangi rasmlarni (taqdimotlarni) yaratishda tashkil etuvchi aqliy jarayonlardir. Olimlarimizdan Yu.N.Kulyutkin bu hodisani qobiliyat, G.Sele esa ruhiy jarayon deb hisoblaydilar.

Fantaziya - insonning tasvirlar, taqdimotlar, g‘oyalarini va boshqarishni shakllantirish qobiliyati, modellashtirish, rejalashtirish, ijod, o‘yin, xotira, fikrlash kabi aqliy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi, qolaversa, fantaziya - inson yoki odamlar guruhining o‘z xohishlarini ifoda etadigan, ammo tegishli voqelik emas. Bundan tashqari, mavzular va ma’lumotlar uchun uni improvizatsiya deb atash mumkin.

Fantaziya - bu yozishni anglatadi. Bu qobiliyat insonning ijodiy ijrosining shartidir. Fantaziya vizual “rasm” talab qilinmasa, ish faoliyatni yoki modelini yaratishda o‘zini namoyon qiladi. Masalan, yozuvchi parchali arxiv manbalari asosida mustahkam ish olib borishi mumkin, ularni o‘zlarining insholari bilan to‘ldiradi. Fantaziya texnikasi urg‘u, o‘xhashlik va yozishni o‘z ichiga oladi.

Sezgi yoki his-tuyg‘ular (eng muhim) - tashqi dunyo bilan munosabatlarda yuzaga keladigan insonning barqaror hissiy tajribalaridir. Hissiyot insonni shakllantirish va tarbiyalashda shakllanadi va ishlab chiqariladi. Qolaversa, sezgi yoki his-tuyg‘u lug‘atlarda - olamdag‘i narsa va hodisalar ayrim xossalaring miyadagi in’ikosi hisoblanishi keltiriladi. Materiyaning sezgi a’zolariga ta’sir ko‘rsatib, bosh miya po‘stlog‘i nerv markazini qo‘zg‘atishi asosida paydo bo‘ladi. Sezgi dunyonи bilishning birinchi bosqichi va tarkibiy qismidir. Sezgilar asosida hissiy bilishning idrok, tasavvur kabi shakllari yuzaga keladi. Sezgi fizik, fiziologik, psixologik jarayonlarda paydo bo‘ladi.

T.N.Kovalchukning fikriga ko‘ra ijodkorlik - sifat jihatidan yangi ma’lumotlar va ma’naviy qadriyatlarni keltirib chiqaradigan inson faoliyatning jarayonidir.

S.Golovin tomonidan ishlib chiqilgan amaliyotchi psixolog lug‘atida ijod – yangi qimmatli g‘oyalarni ishlab chiqishning psixik jarayoni, yangi moddiy va ma’naviy ahamiyatga ega ne’matlarni yaratish[4. 134-b.] tarzida talqin etilgan.

Ijodkorlik – individning ijodkorlik qobiliyati – noodatiy fikrlarni o‘ylab topish, an’anaviy fikrlash doirasidan chetlashish, muammoli masalalarni tezda hal etish qobiliyatidir. U yangi g‘oyalarni yaratishga doimo tayyorlik bilan tavsiflanadi va qobiliyat tuzilmasi komponenti bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida ijodkorlik tushunchasiga ijodkor ishi, ijodkorga xos faoliyat; yaratuvchilik tarzida qisqa ta’rif berilgan.

Pedagogik ensiklopedik lug‘atda “Ijodiy faoliyat sifat jihatdan yangini yaratishga doir inson yoki jamoaviy faoliyat shakli. Ijodiy faoliyatning zaruriy sharti fikrning egiluvchanligi, tanqidiylik, idrok etishning yaxlitligida aks etadi”, [5; 286-b.] deb izoh berilgan. Mazkur lug‘atda “ijod” va “ijodkorlik” tushunchalariga alohida ta’rif berilmagan.

Falsafiy, pedagogik-psixologik adabiyotlarda “ijodkorlik” original, takrorlanmaydigan, ijtimoiy-tarixiy noyoblik bilan ajralib turuvchi faoliyat turi sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev 2020 yil 6 noyabr kунидаги PF-6108-сонли farmonida ijodiy-madаний масалалар bo‘yicha targ‘ibotchilarga yosh avlodni ma’nan barkamol etib tarbiyalash, mакtab tarbiyachilarini va faol tarbiyalanuvchilarining ijodiy faoliyatdagi ishlarini keng jamoatchilikka etkazishga ko‘maklashish, turli xildagi viktorinalar, mushoiralar, adabiy kechalar, qiziqarli mashg‘ulotlar, kitobxonlik va she’rxonlik musobaqalarini tashkil etish vazifalari yuklanadi.

Hozirgi mavjud ta’lim asosan, ilgaridan mavjud bo‘lgan an’anaviy didaktikaga asoslangan, ya’ni o‘quv jarayonida ilgaridan fanga ma’lum bo‘lgan bilimlarni o‘qitish, o‘rgatish, etkazish bilan xarakterlanadi. O‘qituvchi ilgaridan ma’lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan talabaning ta’lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ya’ni, ta’lim ilgaridan ma’lum predmet «avval hunar o`rgat, keyin shogird o‘z xohishicha nimani ijod qilsa-qilaversin» yo’sinida ish tutish rasm bo`lgan.

Bunday holda bilim olish konsepsiysi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

- bilim bilan tanishish, ma’lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-biridan ajrata olish;
- bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;
- bilim-malaka, olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish;
- bilim-transformatsiya, olgan bilimlarini, keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qo‘llash (ya’ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsni tarbiyalash - fanga ma’lum bo‘lgan bilimlarning o‘zinigina o‘zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Bunga yorqin misol, ulug` allomalarimiz Muso al-Xorazmiy matematika fanining asoschisi, Al-Farg`oniyning turli fanlarga tegishli buyuk kashfiyotlari, Al-Farobiyning (70 dan ortiq tillarda erkin so`zlashgan), tovush tezligi, chastotasi, moddiyat, issiqlik, harakat, optikaga oid kashfiyotlari, Abu Rayhon Beruniyning (qomusiy olim) mineralogiya, geodeziya, jug`rofiya, falakkiyot (astronomiya) fanlari rivojiga qo`shgan katta hissasi, Abu Ali Ibn Sinoning «Tib qonunlari», «Ko‘z anatomiysi»ga bag‘ishlangan kitoblari, Ulug`bekning «Zijji Ko‘ragoniy» asari. Ushbu buyuk allomalarining qoldirgan asarlari hozirda ham mamlakatimizda va ko‘plab Evropa mamlakatlarida o‘qib o‘rganilmoqda.

Ularning kashfiyotlari butun jahon xalqlarining umum mulkiga aylanmoqda. Bu shundan darak beradiki, allomalarimiz o‘z davrida mavjud bilimlarni chuqur va puxta o‘rganib, o‘zlashtiribgina qolmay, o‘z ishlariga izlanuvchanlik va ijodkorlik bilan yondoshib, juda ko‘plab kashfiyotlar qilganlar. Shuning uchun ham yangilanayotgan zamonaviy didaktikaning vazifasi faqatgina fanga ma’lum bo‘lgan bilimlarning o‘zini

o‘rgatish, uni takrorlash bilan cheklanmay, ularning ijodiy, tanqidiy va yaratuvchanlik ruhida ish yuritishlariga zamin yaratib bormoqdan iboratdir.

Xulosa

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar shuni ko‘rsatadkki, shaxsning intellektual quvvatlari oshishi globallashuv va rivojlanishning asosiy omilidir. Bolalarda intellektual quvvatlarning rivojlanishi, ularni qo‘llab-quvvatlash va qadriyatlar sifatida xurmat qilish o‘ta muhim masalalardandir.

Insoniylik paradigmasi ta’limning tabiiy-ilmiy paradigmasisiga zid tarzda namoyon bo‘lmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda inson qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda u bolalarni hayotni insonparvarlashtirishga o‘rgatadi, unga go‘zallik qonuniyatlari nuqtai nazaridan qarashga intiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ijodkorlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik hislatlarlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Jamiyatni qayta qurish va yangicha tafakkur bilan yondashish asosida ijtimoiy pedagogik vaziyatlar va jarayonlarning echimlarini topish faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam”jurnali 6-7 son, Sentabr-oktabr 2019, 20-21 betlar
2. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo‘ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” trenerlar uchu qo‘llanma Toshkent 2009 14, 81, 82 betlar
3. Shin A.B., Mirziyoyeva Sh.SH., Grosheva I.B., Mikailova U.T., Suleymanova Yu.T., Daukaeva A.G., Vlasova E.H., Galimova E.F “Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta’lim jarayonini rejorashtirish” Metodik qo‘llanma, Toshkent, 2020 yil 12 bet.
4. Djanpeisova G.E. Maktabgacha yoshdagি bolalarga matematik ta`lim berishda zamonaviy yondashuvlar:Uslubiy qo`llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2019. –112 b.
5. Sh. Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” “Tafakkur bo‘stoni” Toshkent 2023 yil 86 bet
6. Oljayevna O. F. et al. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta’lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.
7. O‘ljayevna O. R. F. et al. Maktabgacha ta’lim tashkiloti boshqaruvinining o‘ziga xos xususiyatlari //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 827-831.
8. O‘rinova F. Bozorboyeva O. Maktabgacha yoshdagи bolalar intellektining rivojlanishida nutqning o‘rni //Development and innovations in science. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 20-24.